

YURIDIK RITORIKANING LOKUTIV AKTNING VOQEALANISHI

Xujaniyazova Hilola Turayevna
Katta o'qituvchi,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada yuridik ritorika doirasida lokutiv aktning sud diskursida voqealanishi pragmalingsvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda lokutiv aktning sud nutqidagi formal-axborot funksiyasi, uning faktologik ma'lumotni aniq, neytral va institutsional me'yorlarga muvofiq tarzda yetkazishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, lokutiv aktning illokutiv va perllokutiv aktlar bilan uzviy bog'liqligi hamda sud nutqining ishontirish salohiyatini shakllantirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi sud diskursidan olingan misollar asosida lokutiv aktlarning fonetik, leksik va sintaktik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari sud diskursida lokutiv akt huquqiy kommunikatsiyaning asosiy pragmatik mexanizmlaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Yuridik ritorika, sud diskursi, lokutiv akt, illokutiv akt, perllokutiv akt, pragmalingsvistika, huquqiy kommunikatsiya, nutqiy akt nazariyasi, institutsional nutq, huquqiy diskurs, referensiya, pragmatik tahlil;

Sud diskursida lokutiv akt nutqiy faoliyatning boshlang'ich va zarur bosqichi sifatida namoyon bo'ladi. Lokutiv akt, avvalo, muayyan lisoniy shaklda ifoda etilgan bayonotning tuzilishi, leksik tarkibi va grammatik tashkil etilishi bilan bog'liq bo'lib, u huquqiy ma'lumotni aniq va bir ma'noli tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Sud jarayonida faktlar, dalillar, huquqiy me'yorlar va voqealarni ifoda etish aynan lokutiv sathda amalga oshadi. Shu bois, lokutiv akt sud nutqining formal-axborot asosini tashkil qiladi va keyingi illokutiv hamda perllokutiv harakatlarning amalga oshishi uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Lokutiv aktning o'zi, qoida tariqasida, bevosita ta'sir ko'rsatishni maqsad qilmaydi, ammo uning aniqligi va to'g'ri tashkil etilganligi sud diskursida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Noto'g'ri yoki noaniq lokutiv ifoda illokutiv niyatning buzilishiga va kutilgan perllokutiv samaraga erishilmasligiga olib kelishi mumkin. Shu ma'noda sud ritorikasida lokutiv akt yuridik nutqning ishonchligi, mantiqiy izchilligi va institutsional talablarga muvofiqligini ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida qaraladi.

Bu holatni ingliz tilidagi sud nutqlari misolida ham kuzatish mumkin. Masalan:

«*The defendant was present at the scene on the night of March 12*» [6] jumlasida lokutiv akt sifatida muayyan fakti neytral, baholashsiz va aniq shaklda ifoda etadi. Ushbu bayonotda nutqning asosiy vazifasi voqelik haqida axborot berish bilan cheklanib, unda illokutiv maqsad aynan, aybni isbotlash yoki rad etish bevosita ifodalanmaydi va keyingi kontekstda, boshqa nutqiy harakatlar orqali shakllanadi. Demak, mazkur jumlada lokutiv mazmun illokutiv yoki perllokutiv yuklama bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmagan.

O'zbek tili sud diskursida ham shu kabi lokutiv ifodalar keng qo'llaniladi. Masalan, «*Ayblanuvchi o'sha kuni kechasi voqea joyida bir o'zi bo'lgan*» [1] jumlasida ham fakt lisoniy jihatdan aniq va neytral tarzda bayon etilgan bo'lib, u lokutiv aktning klassik namunasi hisoblanadi. Mazkur bayonot o'z-o'zidan baholash, undash yoki

majburlovni ifoda etmaydi, balki keyingi nutqiy harakatlar illokutiv va perllokutiv aktlar uchun axborot asosini yaratadi.

Shu tariqa, sud diskursida lokutiv akt huquqiy axborotni tizimli, izchil va institutsional me'yorlarga muvofiq tarzda yetkazishni ta'minlaydigan muhim pragmatik mexanizm hisoblanadi. U illokutiv va perllokutiv aktlar bilan uzviy bog'liq holda ishlab, sud nutqining umumiy ta'sirchanligi va ishontirish salohiyatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Misollarga murojaat qilamiz:

Ingliz tilidagi «*Five days later on 3rd May 1997, Mrs. Pomfret had an appointment at 9.30 am*» [5] jumlasida lokutiv aktning yaqqol namunasi hisoblanadi. Ushbu bayonotda vaqtni aniqlovchi leksik birliklar «*five days later*», «*3rd May 1997*», «*9.30 am*» hamda shaxs nomi «*Mrs. Pomfret*» [1] orqali voqelikka aniq va tekshiriladigan referensiya berilgan. Mazkur birliklar axborotning neytral, baholashsiz va faktologik tarzda ifodalanishini ta'minlaydi. Fonetik jihatdan gap standart talaffuz me'yorlariga muvofiq ifodalangan bo'lib, sintaktik jihatdan oddiy xabar gap shakli qo'llanilgan; subyekt va predikat o'rtasidagi munosabat ochiq va ravshan tarzda bayon etilgan. Shu tariqa, mazkur bayonot sud diskursida faktologik axborotni yetkazishga xizmat qiluvchi lokutiv akt sifatida namoyon bo'ladi.

Shu kabi lokutiv aktlarga yana «*The contract shall enter into force upon signature by both parties*»; «*The defendant has the right to legal representation*»; «*The criminal proceedings were terminated due to lack of evidence*» kabi misollarni kiritish mumkin [4]. Birinchi misolda lokutiv akt huquqiy normani qat'iy va aniq shaklda ifoda etadi. «*Shall*» modal fe'li orqali bayonotning normativ xarakteri kuchaytirilib, nutqiy ta'sir darajasi oshadi; adresat ushbu gapni oddiy axborot sifatida emas, balki majburiy huquqiy qoida sifatida qabul qiladi. Ikkinchi misolda lokutiv akt shaxsning huquqiy maqomini belgilashga qaratilgan bo'lib, nutqiy ta'sir nisbatan neytral tusga ega; asosiy vazifa huquqiy axborotni aniq va ikki ma'nosiz yetkazishdan iborat. Uchinchi misolda esa gap orqali huquqiy qarorning natijasi bayon etilgan bo'lib, ta'sir darajasi institutsional va rasmiy xarakter kasb etadi hamda adresat uchun huquqiy holatning o'zgarganini ochiq-oydin belgilaydi.

O'zbek tilida advokat nutqida qo'llanilgan «*Sudlanuvchi Snyatovskaya Oksana Vladimirovna tergov va sud davrida unga nisbatan qo'yilayotgan ayblovga qisman iqrор ekanligini va unga nisbatan JKning 167-moddasi bilan nohaq ayblov qo'yilganligini aytib ko'rgazma berdi*» (S.O.Vladimirovna ishi) [1] bayonoti ham lokutiv aktning klassik namunasi sifatida qaraladi. Mazkur jumlada voqelik haqidagi axborot neytral, baholashsiz va faktologik tarzda ifodalangan bo'lib, nutqning asosiy vazifasi ma'lumotni yetkazishdan iborat. Fonetik sathda gap huquqiy nutqqa xos rasmiy va me'yoriy talaffuzda bayon etilgan deb baholanadi. Leksik jihatdan esa «*sudlanuvchi*», «*ayblov*», «*JKning 167-moddasi*», «*qisman iqrор*» kabi yuridik terminlarning qo'llanilishi bayonotning institutsional xususiyatini belgilab, mazmunning aniq va ikki ma'nosiz ifodalanishini ta'minlaydi. Shu tariqa, ushbu bayonot keyingi illokutiv va perllokutiv harakatlar uchun axborot asosini yaratuvchi lokutiv akt sifatida namoyon bo'ladi. Sintaktik tuzilishiga ko'ra, gap murakkab tarkibli xabar gap bo'lib, unda bir necha mazmuniy komponentlar izchil ravishda bog'langan. Bu tuzilish ayblanuvchining pozitsiyasi haqida axborot berishni maqsad qiladi va voqelikni bayon etishga qaratilgan. Ikkala misolda ham fonetik, leksik va sintaktik birliklar so'zlovchi tomonidan me'yoriy tarzda qo'llanilgani natijasida muayyan ma'no va aniq referensiyaga ega lokutiv aktlar shakllangan. Bu lokutiv aktlar sud diskursida

keyingi illokutiv harakatlar, ya'ni ayblov yoki himoya pozitsiyasini shakllantirish hamda perlokutiv ta'sirga erishish uchun zarur bo'lgan kommunikativ asosni yaratadi.

REFERENCES:

1. Саломов Б.С. Ўзбекистон адвокатларининг ҳимоя нутқлари. - Тошкент: Адолат, 2006. 300 б.
2. John L. Austin. *How to Do Things with Words*. Oxford: Oxford University Press, 1962.
3. John R. Searle. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
4. Teun A. van Dijk. *Discourse and Context: A Sociocognitive Approach*. Cambridge University Press, 2008.
5. George Yule. *Pragmatics*. Oxford University Press, 1996.
6. Stephen C. Levinson. *Pragmatics*. Cambridge University Press, 1983.
7. Mikhail Bakhtin. *The Dialogic Imagination*. Austin: University of Texas Press, 1981.